

**KREDIT BOZORINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK MOLIYA AKADEMIYASI****Javlanova Shaxnoza DJalaliddinovna***“Iqtisodiyotni monetar tartibga solish” mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur tezisda kreditlarning ijobiy dinamikasi hisobi, fiskal rag'batlantirishlarning baland bo'lganligi hamda pul o'tkazmalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kelganligi o'rganildi. Jahon iqtisodiyotidagi qat'iy moliyaviy shart-sharoitlar, mehnat bozorlarining muvozanatlashishi hamda xomashyo mahsulotlari narxlarining kamayuvchi dinamikasi ta'sirida global inflyatsiyaning mazkur yilda ham sekinlashib borishda davom etishi kutilmoqdaligi bashorat qilinmoqda.*

Kalit sozlar: *Xalqaro kredit liniyalari, tijorat bank, debit, kredit, kredit hisobvarag'i, kapital, zaxira fondi, hisob varaq, Kredit operatsiyalari, shartnoma, balans.*

Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning ijobiy dinamikasi hisobi, fiskal rag'batlantirishlarning baland bo'lganligi hamda pul o'tkazmalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlovchi eng muhim omillardan biri bo'lib keldi. Jahon iqtisodiyotidagi qat'iy moliyaviy shart-sharoitlar, mehnat bozorlarining muvozanatlashishi hamda xomashyo mahsulotlari narxlarining kamayuvchi dinamikasi ta'sirida global inflyatsiyaning mazkur yilda ham sekinlashib borishda davom etishi kutilmoqda[1]. Savdo sanoat hamkorlardagi mazkur iqtisodiy tendensiyalar va prognozlarni hisobga olib, keyingi oylarda so'mning real almashuv kursiga nisbatan baland bosimlar kuzatilmasligi taxmin qilinmoqda. Bank kredit tizimida likvidlikdagi tarkibiy profitsitning kamayib borishi bilan bir o'rinda, pul kredit bozorida operatsiyalarning faollashuvi kuchaygani kuzatilmoqda. Pul bozorida kam muddatli foiz stavkalarining mazkur yil davomida ham monetar operatsiyalarni faol qo'llagan holda foiz koridori doirasida shakllanishi uchun shart - sharoit yaratib boriladi[2].

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor – iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasining 5 foizlik o'rta muddatli targetiga erishishga qaratilmoqda deb yozadi Markaziy bank o'z sahifalarida. Markaziy bank o'z boshqaruvi doirasida 2024-yil 25-yanvardagi yig'ilishida xususan iqtisodiyotda qo'yilayotgan yuqori talab dinamikasining ta'sirida shakllanayotgan pirovard natijalarni hisobga olgani holda, asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirganligini ma'lum qildi. Prognozlarga qaraganda, inflyatsiya shu yil yakuniga qadar 8-9 foizni tashkil etishi kutilyapti. Shakllantirilayotgan pul-kredit shart-sharoitlari inflyatsiya darajasini 5 foizlik target darajasigacha barqaror pasayish trayektoriyasini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratgan. Umumiy hisobda inflyatsiya oxirgi oylarda 8,8 foiz darajasida saqlanib turishini aytib o'tilgan. Iste'mol savatidagi

mahsulotlar sinfida inflyatsiyaning kamayishiga qaramay, xizmatlar inflyatsiyasi so'nggi chorakda biroz tezlashadi. Natijada esa, kelgusida talab tomonidan umumiy inflyatsiyaga oshiruvchi bosimlarning kuchayishi ehtimoli mavjudligini keltirib chiqaradi. Iqtisodiyotda inflyatsion jarayonlarning yuzaga chiqishi va saqlanib qolayotganligi baland talab shart-sharoitlariga mahsus ayrim taklif komponentlarining to'liq mos kelmayotganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, so'nggi so'rovlarning natijalari hisobiga ko'ra, sezilgan inflyatsiya va inflyatsion prognozlar o'zining yuqori darajalarida saqlanib turmoqda. 2023-yilda iqtisodiy o'sishning 6 foizgacha tezlashib ketishiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining jadal sur'atlarda ortishi juda muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to'g'ri aks ettirish davrida aks ettiriladi. Kredit ajratilgandan so'ng kredit monitoringi o'tkazilishi ustidan nazoratni kuchaytirish. Berilgan kreditlarni monitoring qilish orqali kreditdan qanday maqsadda foydalanilayotganligi va qay darajada samaradorlikka erishilayotganligini aniqlash mumkin. Banklarda kreditni berish va undirish jarayoni yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni ommaga yetkazish. Yana shu yo'l bilan shubhali va umidsiz ssudalarning tasniflangan kredit hajmidagi salmog'ini qisqartirish[3]. Banklarda yuqori likvidlikka ega bo'lgan garov obyektlaridan foydalanishni kuchaytirish. Kreditlarni undirishni kuchaytirish maqsadida bank xodimlari va mijoz o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish va mijoz o'rtasida doimiy ravishda ma'lumot olib turishni tashkil etish[6]. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil o'sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda banklar o'zlariga katta xatarni ham olishmoqda. O'ylaymizki, bildirilgan takliflarimizni amaliyotga tadbiiq etilishi, tom ma'noda tijorat banklarining kredit riski va bu orqali bankning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sirini kamaytiradi[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1 Oxlopkov A.V. (2011) Innovatsii sfere predostavleniya bankovskix uslug: dis. ... kand. ekon. nauk. - M., 267 bet[1].
2. Polishuk A.I. (2010) Kommercheskie banki: novie uslugii innovatsionnie texnologii kommunikatsii // Biznes i banki. - 2010. - 10 iyunya.[2]
3. Semibratova O.V. (2012) Bankovskoe delo O.V. Semibratova. - Moskva: Academia, 188 bet[3].
4. Абдиқаримова Д.Р. Хориж амалиётида банк кредитлари бўйича гаровни баҳолашнинг асосий тамойиллари ва таъминот турлари.//«Biznes-эксперт» Журналы. – Тошкент, 2016. - No3. – С. 29-33. (08.00.00; No3)[4]